

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

2018 yil yanvar-may oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1658,5 mlrd.so'mni**, o'sish **8,9 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **4,9 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **53,5 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **58,7 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1658,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,2 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 4,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 8,2 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1527,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 92,1 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2018 yil	2017 yil	2017 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	8,5	5,7	148,8
Paxta linti, ming tonna	1,9	1,6	114,4
Aroq – ming litr 100 % spirt	452,6	516,5	87,6
Vino, ming litr	629,1	487,0	129,2
Un, ming tonna	48,2	47,9	100,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	3,8	5,0	74,9



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 887,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-may oyiga nisbatan 4,9 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 53,5 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




2018 yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi 438,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 105,0 %ga o'sdi.

Nooziq-ovqatlar va vino-arq mahsulotlari hajmi esa 448,9 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 % ga o'sdi.

2017 yilning yanvar-may oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 46,1 % dan 2018 yilning yanvar-may oyida 49,4 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % punktga ortgani kuzatilmoqda.

Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




2017 yilning yanvar-may oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 53,9 % dan 2018 yilning yanvar-may oyida 50,7 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 % punktga kamaygani kuzatilmoqda.

davomi

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 46,0 % ulushini), Namangan (9,0 %), Uychi tumani (8,1 %), Uchqo'rg'on (8,0 %), To'raqo'rg'on (6,5 %), Pop (5,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-may oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,6 %), Kosonsoy (2,1 %), Yangiqo'rg'on (2,6 %), Norin (3,1 %) va Chust (3,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida (2017 yilning yanvar-may oyiga nisbatan 110,4 % ga), Pop (121,4 % ga), va Mingbuloq (159,6 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-may oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 % ga ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 58,7 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (95,9 %) va Namangan (76,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (14,7 %), Pop (26,8 %) va Uchqo'rg'on (23,8 %) tumanlarida kuzatildi.


2018 yilning yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 4100 dan oshiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2023 tasi Namangan shahrida, 301 tasi Chust, 274 tasi Namangan, 272 tasi Uychi, 226 tasi To'raqo'rg'on, 217 tasi Kosonsoy, 152 tasi Chortoq, 146 tasi Uchqo'rg'on, 142 tasi Yangiqo'rg'on, 140 tasi Pop, 128 tasi Norin va 83 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatda 438 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 63,7 % Namangan shahri, Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80